

“GULLIVERNING SAYOHATLARI” ASARINI O‘QIGANIMDAN KEYINGI TAASSUROTULARIM

Boymirzayeva Muslimaxon Bekzodjon qizi

To‘raqo‘rg‘on tumani

42-sonli umumta’lim maktabi 6-sinf o‘quvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada To‘raqo‘rg‘on tumani 42-sonli umumta’lim maktabi 6-sinf o‘quvchisi Boymirzayeva Muslima Bekzodjon qizining Jonathan Swift tomonidan yozilgan “Gulliverning sayohatlari” asarini o‘qigandan keyingi shaxsiy taassurotlari yoritilgan. Liliput va Brobdingneg mamlakatlari misolida insonlarning kibr, mansabparastlik, adolatsizlik hamda axloqiy qadriyatlarga munosabati ochib beriladi. Maqolada asarning tarbiyaviy ahamiyati, o‘quvchining dunyoqarashini kengaytirishdagi o‘rni va hayotiy xulosalar chiqarishga undovchi jihatlari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Jonathan Swift, Gulliverning sayohatlari, badiiy asar, fantaziya, sarguzasht, jamiyat tanqidi, inson tabiati, tarbiyaviy ahamiyat, Liliput, Brobdingneg.

Abstract. This article presents the personal impressions of Boymirzayeva Muslima, daughter of Bekzodjon, a 6th-grade student at Secondary School No. 42 of the To‘raqo‘rg‘on District, after reading “Gulliver’s Travels” by Jonathan Swift. Using the examples of the countries of Lilliput and Brobdingnag, the article reveals people’s arrogance, careerism, injustice, and attitudes toward moral values. It substantiates the educational significance of the work, its role in broadening the student’s worldview, and its aspects that encourage drawing life lessons.

Keywords: Jonathan Swift, “Gulliver’s Travels”, literary work, fantasy, adventure, social criticism, human nature, educational significance, Lilliput, Brobdingnag.

KIRISH

Jonathan Swift tomonidan yozilgan “Gulliverning sayohatlari” asari jahon adabiyotidagi eng mashhur va o‘ylantiruvchi asarlardan biri hisoblanadi. Asar bir qarashda sarguzasht va fantaziyaga boy ertakdek tuyuladi. Ammo uni diqqat bilan o‘qigan

o'quvchi bu asar orqali inson tabiati, jamiyatdagi muammolar va kamchiliklar chuqur tanqid qilinganini anglaydi. Men bu kitobni o'qib chiqqach, nafaqat qiziqarli voqealardan zavq oldim, balki ko'plab hayotiy xulosalar ham chiqardim.

Asar bosh qahramoni Lemuel Gulliver kasbi bo'yicha kema jarrohi bo'lib, u turli dengiz safarlariga chiqadi. Har bir sayohat davomida u g'ayrioddiy mamlakatlarga tushib qoladi. Ushbu mamlakatlar real hayotga o'xshash bo'lsa-da, muallif ularni fantaziya orqali yanada ta'sirchan qilib ko'rsatadi. Gulliverning har bir safarida insonlarning xulqi, jamiyatdagi tartiblar va boshqaruv tizimi tanqidiy ruhda tasvirlanadi.

Gulliverning eng mashhur sayohatlaridan biri Liliput mamlakatiga qilgan safaridir. Bu mamlakatda yashovchi odamlar juda mitti bo'lishiga qaramay, ularning mansabga bo'lgan intilishi, bir-biri bilan kelisha olmasligi va siyosiy nizolari juda katta. Swift bu orqali odamlarning tashqi ko'rinishi kichik bo'lsa ham, ichki g'ururi va manmanligi ulkan bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Liliputdagi arziyas sabablar tufayli kelib chiqadigan mojarolar bugungi jamiyatda ham uchrab turadigan holatlarga o'xshaydi.

Bu sayohatdan men shuni angladimki, hokimiyat va mansab insonni har doim ham to'g'ri yo'lga boshlamaydi. Aksincha, ba'zan u odamlarni adolatsizlikka, kibrga va shafqatsizlikka yetaklaydi. Liliput misolida muallif hokimiyat uchun kurash insoniyatni qanday qilib kulgili va achinarli ahvolga solib qo'yishini mahorat bilan tasvirlaydi.

Asardagi yana bir muhim sayohat — Brobdingneg, ya'ni gigantlar mamlakatiga qilgan safaridir. Bu yerda Gulliver o'zi juda kichkina va ojiz bo'lib qoladi. Gigantlar esa kuchli va jismonan baquvvat bo'lishiga qaramay, ko'proq axloqiy poklik va oddiylikni qadrlashadi. Bu holat menga insonning qadr-qimmatini faqat kuch yoki bilim bilan emas, balki axloq va halollik bilan o'lchanishini anglatdi.

Jonathan Swift ushbu sayohat orqali ilm-fan va aqlga ko'r-ko'rona ishonish ham har doim to'g'ri emasligini ko'rsatadi. Agar bilim insoniylik va mehr-shafqat bilan uyg'unlashmasa, u xavfli qurolga aylanishi mumkin. Bu fikr bugungi zamonaviy texnologiyalar rivojlangan davrda ayniqsa muhimdir.

Asarning umumiy mazmuni meni juda chuqur o'ylantirdi va katta taassurot qoldirdi.

Jonathan Swift asarda qiziqarli, kulgili va fantastik voqealar orqali insonlarning asl fe'l-

atvori va jamiyatdagi muammolarni ochib beradi. Gulliverning turli mamlakatlarga qilgan sayohatlari davomida u har xil odamlar bilan uchrashadi va ularning yashash tarzini ko‘radi. Bu voqealarni o‘qir ekanman, ba’zi joylar juda kulgili bo‘lib tuyuldi, ba’zi sahnalarda esa odamlarning adolatsizligi va kibrli xatti-harakatlari sabab achinib ketdim.

Ayniqsa, Liliput mamlakatida odamlarning juda mayda bo‘lishiga qaramay, o‘zlarini juda katta tutishlari meni o‘ylantirdi. Brobdingneg mamlakatida esa odamlar juda katta bo‘lsa-da, kamtar va halol bo‘lishga harakat qilishadi. Muallif shu ikki mamlakat misolida insonning tashqi ko‘rinishi emas, balki ichki dunyosi muhim ekanligini ko‘rsatadi. Har bir sayohatdan so‘ng men yaxshilik va yomonlik, adolat va adolatsizlik haqida o‘ylab ko‘rdim.

Asarni o‘qish jarayonida men sabrli bo‘lish, kibrga berilmaslik, boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish kerakligini tushundim. Har bir bob o‘quvchini hayot haqida mulohaza yuritishga undaydi va to‘g‘ri xulosa chiqarishga yordam beradi. Shu sababli “Gulliverning sayohatlari” nafaqat qiziqarli sarguzasht asari, balki tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan, o‘quvchining dunyoqarashini kengaytiradigan va yaxshi inson bo‘lib ulg‘ayishga undaydigan muhim asar deb hisoblayman.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, men uchun “Gulliverning sayohatlari” asari juda qiziqarli va foydali bo‘ldi. Bu kitob menga insonlarga va jamiyatga boshqacha nigoh bilan qarashni o‘rgatdi. Jonathan Swift o‘z asari orqali bizni kamtar bo‘lishga, adolatni qadrlashga va o‘z kamchiliklarimiz ustida ishlashga chorlaydi. Shuning uchun bu asarni nafaqat o‘quvchilar, balki kattalar ham o‘qib chiqishi lozim, deb o‘ylayman.

Bu tajriba ortidan yanada kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishim ortganligini ta’kidlab, o‘z tengqurlaringa ham maslahatlar berishda davom etaman.

Adabiyotlar:

1. Swift, Jonatan. Gulliverning sayohatlari [Text] : Bolalar va o‘smirlar uchun /J.Svift; tarjimon V. Ro‘zimatov; mas’ul muharrir O. Abdullayev. – Toshkent: «Vektor-Press», 2009. – 144 b. – ISBN 978-9943-343-71-9